

## BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI

*Axmadaliyev Nizomiddin Axmadullayevich*

*Andijon shahar 2-son kasb-hunar maktabi biologiya fani o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** An’anaviy darsdan farqli o‘laroq metodlar dars jarayoniga jon kiritib, eng muhimi o‘quvchi ongini o‘stirmoqda. Endi o‘quvchi sherigining soyasida soyalab emas, o‘z nuqtai nazarini ommaga etarlicha bayon eta olayapdi. Demakki, interfaol usullar darsning jon tomiriga aylanmoqda. Maqolada ham ushbu metodlardan namunalar asosida izlanishlar olib borilib ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar, o‘quvchi, interfaol metod, dars, ta’lim-tarbiya, tabiiy va aniq fanlar.

### KIRISH

Bugungi zamonaviy ta’limni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi faol usullar ham talabaga ham pedagogga amaliy ko‘makchi vazifasini o‘tamoqda.

Ma’lumki, barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Shuni inobatga olib, Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom mulohazalar, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda desak yangilashmaymiz. Xo‘sh, interfaol usullarning qanday ma’noga ega va uning ahamiyati qanday? Eng avvalo, interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni shirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam berishini anglashimiz lozim.

Azaldan ma’lumki, ta’limni pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish xususida ajdodlarimiz ham bir qancha izlanishlar olib borganlar. Sharqning buyuk allomalari Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Abu Nasr Farobiy kabi qomusiy olimlar o‘z asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga yetkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berganliklarini ta’kidlab o‘tishgan. Hozirgi ta’lim tizimida bilimlarni egallashning yangi pedagogik texnologiyalari – noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining uslublarini qo‘llashni taqozo etmoqda. Noan’anaviy ta’lim texnologiyasi: birgalikda o‘rganish, eksperiment, modellashtirishga bo‘linadi va yaxlit uzviy tizim asosida olib boriladi. Noan’anaviy ta’lim berish usuli ta’limiy maqsadni amalga oshirish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlik

faoliyatning asosi hisoblanadi. Hozirda tabiiy fanlarning rivojlanishi, fanlar o'rtasida differentsatsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi ob'yektiv qonuniyat sifatida tabiiy fanlar biologiya, kimyo, fizika fanlari o'rtasida fanlararo bog'lanishni amalga oshirishni talab etmoqda. Biologiya o'quv fanini o'qitishning vazifalari – asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar bilan tanishtirish, tirik organizmlarning yashash muhitiga moslashishlarning vujudga kelish mexanizmlari haqida ma'lumotlar berish, organizmlarning individual va tarixiy rivojlanishining hozirgi mazmunining ta'limni biologiyaga tanishtirish, asosiy bosqichlarini tanishtirish, biologiya ta'lim mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan texnika yutuqlari bilan bog'lanishini ta'minlash, o'quvchilar o'zlari va o'zgalarning salomatliklarini saqlashi, sog'lom turmush tarziga rioya qilishga yo'naltirish, tabiat va uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish, biologik bilimlar zaminida mahalliy o'simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari va shunga o'xshash tiriklikning o'ziga xosliklarini o'rganish va o'rgatishdan iborat. Bugungi zamonaviy ta'limni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi faol usullar o'quvchilarga ham o'qituvchiga ham amaliy ko'makchi vazifasini o'tamoqda. An'anaviy darsdan farqli o'laroq, metodlar dars jarayoniga jon kritib, eng muhimi o'quvchi ongini o'stirmoqda. Endi o'quvchilar sherigining soyasida soyalab emas, o'z nuqtai nazarini ommaga yetarlicha bayon eta olayapti. Demakki, interfaol usullar darsning jon tomiriga aylanib bormoqda. "Chaxpalak" metodi.

1. Kichik guruhning (4-5 kishidan iborat) har bir ishtirokchisiga toza oq varaq beriladi va bir xil savol beriladi (masalan "jinsiy demorfizm hodisasi nima") (zarur bo'lganda o'qituvchi guruhning har bir ishtirokchisi uchun turli savollarni tayyorlashi va taklif qilishi mumkin).

Barcha ishtirokchilar og'zaki fikr almashmasdan, o'zlarining varaqlarida savollarga bo'lgan javoblarni o'zlari mustaqil ifodalar yozadilar.

2. Ifodalar yozilgan varaqlar har 2 daqiqada soat millarining harakati bo'yicha kichik guruhlardagi qo'shnilariga uzatiladi (har bir qo'shni guruh ifodalarni yozishda har xil rangli ruchkalardan foydalanishi maqsadga muvofiq masalan 1 – guruh qizil rangda, 2 – guruh ko'k rangda, 3 – guruh yashil rangda va hokazo). Bunday varaqni olgan o'quvchilar varaqda mavjud ma'lumotlarni takrorlamasdan yangi ma'lumotlarni yozishi kerak bo'ladi. har bir guruhning varag'i o'ziga qaytib kelgandan so'ng ish yakunlanadi.

3. Guruhlardagi ishtirokchilar tomonidan yozilgan har bir ma'lumotlar muhokamasi o'tkazilib, ularning eng muhimlari va takrorlanmagan ma'lumotlar haqida mulohaza yuritiladi va o'qituvchi tomonidan doskaga har bitta guruhning ma'lumotlari haqidagi boshqa guruh ishtirokchilarining fikrlari asosida guruhlar baholab boriladi. Hamda g'olib jamoa aniqlanadi.



### FOYDALANISH DOIRALARI:

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda, topshiriqlar o'tilgan ma'lum bir mavzu yuzasidan o'quvchilar yoshiga moslashtirilgandan keyin.

Afzalliklari: O'tilgan mavzuni yoki berilgan topshiriq yuzasidan izchil muhokama etishni tashkil etish, o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, bilimlarni umumlashtirish va mavjud tajribani aniqlash.

“Nilufar guli” metodi. “Nilufar guli” metodi o'zida nilufar guli ko'rinishini ifodalaydi. Uning asosiy qismini to'qqizta katta to'rtburchak tashkil etadi. O'quvchilar metod chizmasini tuzish qoidalari bilan tanishtirib o'tiladi. O'quvchilar soniga qarab sinfdagi o'quvchilar 5 – 6 kishidan iborat jamoalarga bo'linib oq qog'ozga o'zlarining chizmasini tuzadilar. To'rt burchak markazida avval asosiy so'z (masalan, odam anatomiyasidagi qon yoki to'qimalar tushunchani oldik deydik) yozib olinadi.

Uning atrofidagi 8 ta to'rtburchak esa aynan markazdagi tushunchaga mos keladigan so'z yoki gaplar bilan to'ldiriladi. Markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rtburchakka yozilgan ma'lumotlarni atrofda joylashgan sakkizta to'rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya'ni gulning barglariga olib chiqadilar). Buning natijasida ma'lumotlarning har biri yangi “nilufar gul”ini hosil qiladi. Ularning har biri ham o'z navbatida ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Ma'lumotlar to'laqonli yozib bo'lingandan so'ng o'qituvchi boshchiligida har bir guruhning tuzgan “nilufar gul”i tahlil qilinadi va bu asosda o'quvchilar baholanadi. Afzalliklari: “Nilufar guli” metodidan foydalanish o'quvchini tizimli fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir dars jarayonini to'g'ri tashkil eta olish o'qituvchi uchun juda muhimdir. Va albatta o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash ularda yangidan- yangi ko'nikmalarni hosil qilishda ta'lim metodlaridan foydalanish samarali bo'ladi va bu bilan yuqori natijalarga erishish mumkin. Hamda, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqishning ortishiga ham sababdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov, Biologiya ta'lim texnologiyalari.- T.: O'qituvchi, 2002.
2. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov, Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv- metodik qo'llanma.- T.: “Bilim” 2004.
3. Sh.R.Nurmatova, D.A.Boltayeva, Interfaol metodlardan biologiyani o'qitishda foydalanish. Maqola, 2022.
3. Z.Abdunazarova, Biologiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash. Maqola 2021
5. Golish L.V, Fayzullayeva D.M, Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. “Iqtisodiyot”, 2012.
4. N.M.Abdurahmonova. Biologiya fanini o'qitishda innovatsion ta'limning afzalliklari va uning imkoniyatlari. 1-3 betlar. <https://kopilkaurokov.ru>.

5. N.Reyimbayeva. Biologiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning amaliy ahamiyati. <https://megaline.uz>.
6. D.R.Iminova Biologiya darslarida o‘yinli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. 19-20 betlar.

